



---

## MUSIQA MADANIYATI FANINING HOZIRGI KUNDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Arislonova Ra’no

Qarshi Davlat Universiteti Yoshlar bilan ishlash bo’limi tyutori

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqola hozirgi kundagi fan yutuqlari hamda musiqa madaniyati fanining qanchalik darajada rivojlanib borayotganligi haqida hamda bu fan o’quvchi yoshlarning bilimi tafakkurini musiqa madaniyati fani orqali boyitib borish so’z boradi.

**Kalit So’zlar:** Musiqiy tarbiya, Aristotel asarlari, ijodkorlik, ma’naviy bilim, Musiqa darslarining xususiyati, ijtimoiy muhit, Musiqa madaniyati o’qituvchisining faoliyati.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi o‘tgan davrda mamlakatimizni rivojlantirishning barcha jabhalarida, katta siyosiy va ijtimoiy, iqtisodiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. O‘zining buyuk, zukko, fozil insonlari bilan mashhur bo‘lgan yurtimiz kelajagi sanalgan yoki yosh avlodni ma’naviy barkamol, aqlan yetuk, jismonan sog‘lom qilib tarbiyalash davlat siyosati darajasidagi eng ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Prezidentimiz kelajagi buyuk davlatni shakllantirishga oid qaror, farmoyishlari, asarlari, nutqlarda madaniyat, fan, san’at ravnaqiga alohida ahamiyat berib keladi. Ilm-fan, madaniyat va ma’rifat jamiyatni, davlatni yuksantiruvchi kuch sifatida tavsiflanadi. Bu jamiyatimizning ta’lim-tarbiya, ilm, fan ta’lim muassasalari zimmasiga katta mas’uliyatni yuklaydi. ”Ta’lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta’minlash doimiy ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi”.



# E CONF SERIES



## International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> November, 2025

Kelajak bugundan boshlanadi – deydi dono xalqimiz. Yosh avlodni kelgusi hayoti, uni inson qilib ko‘rsatuvchi ruhiy va ma‘naviy jarayonning qay maqsadga yo‘naltirib kelib chiqadigan vazifalariga bogliq.

Bugungi hayotimizda mamlakatimizda yoshlar uchun qilinayotgan sa‘y-harakatlar respublikamizda kelajagimiz bunyodkorlari bo‘lmish yosh avlod tarbiyasiga e‘tibor qaratilgani quvonarli hol albatta. Ta‘lim dargohiga ilk qadamini bosayotgan o‘quvchilarimizga birinchi navbatda xalqimiz san‘ati, madaniyati, adabiyoti, tarixi, milliy qadriyatlari va tiliga muhabbat, ularni kelgusida rivojlantira oladigan, chin yurakdan his qiladigan, innellktual salohiyatli va ma‘naviy shaxslar sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berilayotganligi bejiz emas. Zero, aqliy barkamol, ahloqiy estetik, ma‘naviy yetuk, madaniyati barqaror shakllangan shaxsni tarbiyalash o‘z navbatida madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy muhit, ta‘lim-tarbiyani yaratishda asosiy va hal qiluvchi omil hisoblanadi. Insonning ma‘naviy ongi, dunyoqarashi va madaniy kamolotini shakllanishida musiqa san‘ati o‘zining ta‘sir kuchi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Insonning go‘zallik tuyg‘usini taraqqiy etmay turib, ma‘naviy barkamol inson haqida gapirib bo‘lmaydi. Odamzod o‘zini qurshab turgan tashqi olamda, o‘zi yashayotgan hayotda, o‘zi bilan aloqada bo‘layotgan insonlarni, muayyan davrda amal qilayotgan va tarixiy shakllangan badiiy san‘at namunalarida mujassamlashgan go‘zallikni tushuna olmas ekan, hech qachon qalban barkamol inson bo‘la olmaydi. Musiqa esa ana shunday nozik tuyg‘ularni shakllantirish va tarbiyalashning qudratli vositalaridan biridir. San‘at asarlarining, ayniqsa, milliy qo‘shiq va musiqaning insonning ahloqiy-ruhiy rivojiga ko‘rsatgan ta‘siri shu juda ham kuchli. Insonning dunyoqarashi, ma‘naviy ongiva kamolotini rivojlantirishda musiqa san‘ati juda katta ahamiyatli hisoblanadi.

Haqiqatdan ham musiqa insonning ahloqiy va estetik hissiyotlariga ta‘sir etish xususiyati bilim pedagogik fanlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Ta‘lim-tarbiya maskanlarida musiqa madaniyati fanini o‘qitishning bosh maqsadi tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishdir. Musiqa madaniyati fanini o‘qitilishi juda muhim hisoblanadi. Chunki inson shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydigan san‘at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq grek faylasufi Platon shunday degan edi: ”Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san‘atda emasmikan, zeroki, ritm va



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

Hosted online from New York, USA

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

2<sup>nd</sup> November, 2025

garmoniya hammadan ko‘proq shu vaqtda qalbga chuqur yo‘l topadi va salobat baxsh etib,uni ko‘rkam qiladiki,agar tarbiya to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, aks xolda uning teskarisi bo‘lib chiqadi. ”Aristotel esa ”Musika kishi ruhining ahloqiy tomoniga ma’lum darajada ta’sir etadi.”

XXI asrda mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy sohalarida bo‘lgani kabi musika ta’limi sohasida ham islohotlar tobora keng quloq yoydi.Hayotimizning barcha jabhalarida,jumladan yosh avlod ta’lim-tarbiyasida ham hukumat tomonidan har qachongidan ham e’tibor yanada kuchaytirildi.xalqimizning tarixi,o‘tmish madaniyatimiz va ma’naviyatimizni qayta tiklash,merosimizni yanada boyitish borasidagi harakatlar, yoshlarimizning ta’lim va tarbiyasiga berilayotgan katta e’tibor shalar jumlasidandir. Bu kabi ishlarni amalga oshirishdan maqsad mamlakatimizning dunyo jamiyati orasida o‘z o‘rni va mavqei qaror toptirish, O‘zbekistonning o‘z qadr-qimmatini va uning dunyo madaniyati va sivilizatsiyasida qilgan xizmatini,o‘z o‘rnini belgilashdan iboratdir.Albatta har qanday mamlakatning unda yashayotgan xalqning o‘qimishlilik,bilimdonlik saviyasi uning ma’naviy-mafkuraviy darajasiga bog‘liq.Mamlakatimizda musika ta’limi va tarbiyasi sohasini rivojlantirish va bu borada amalga oshirilayotgan ishlar diqqatga sazavvordir.Ko‘rinib turibdiki musika sohasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasi har qachongidan ham ahamiyat kasb etmoqda. Zero, Prezidentimiz aytganidek, ”Mamlakatimiz uchun ilm fan sohasidagi ustuvor yo‘nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo‘la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir necha ustuvor yo‘nalishini rivojlantirish tarafdorimiz”.Musika madaniyati faniyosh avlodlarining tafakkurini yuksaltirishda muhim asosiy rol o‘ynaydi.Musika madaniyati darslari nafaqatijtimoiy, balki siyosiy, madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, uning naqadar mas’uliyatli ekanini his etmoq kerak.Milliy folklor dan tortib, Yuksak ijodiy namunalarga qadar qarar kanmiz, musika xalq va uni manfaati uchun qanchalik kerakli ekanligini anglab yetamiz.Qo‘shiq va kuylarda xalqning orzulari va armonlari yoritiladi.Yosh avlodni ma’naviy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan oqilona foydalanib,milliy ohanglarni his eta bilishni shakllantirish lozim.Musika san’ati kishilarni yaxshilik saritetaklab insonni ezgulikka chorlab,tarbiyalaydi.Musika ta’limi o‘quvchilarning musiqiy



# E CONF SERIES



## International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> November, 2025

bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, tashabbuskorlik, obrazli tasavvur qilish, ijodkorlik, davlat ta'lim standartlari asosida ta'lim mazmuni, xotirani mustahkamlash, ularda mustaqillik, va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Ayniqsa, kishining qaysi millatga mansubligi faqat g'oyagagina emas, balki his-tuyg'u hamdir. Bugungi avlodni madaniy-ma'naviy, aqliy-axloqiy jihatdan tayyorlamasdan, yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning yutuqlaridan bahramand qilmasdan fanga is'tedodli yoshlarni kirib kelishini ta'minlamasdan, qo'llab-quvvatlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonib-ishonmasdan turib, mamlakatimiz ma'naviyatini rivojlantira olmaymiz. Shunday ekan, ularni ma'naviy barkamollikka erishishlarida pand-nasihatga boy, milliy musiqamizning kuch qudratiga tayangan holda ibratli, xalqona yaratilgan qo'shiqva kuylardan samarali foydalanishimiz zarur. Musiqa ta'limi bu kabi imkoniyatlari yosh avlodni barkamol bo'lib yetishishlarida ularni tarbiyalashda, o'ziga xos va asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqa ta'limidan o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan ularda kuzatuvchanlik, tashabbuskorlik, xotirani mustahkamlash, mustaqillik, obrazli tasavvur qilish, davlat standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni ijodkorlik, musiqiy va badiiy did kabi xislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. O'quvchilarning musiqiy-estetik rivojlanishlari uchun o'qituvchi darslarni yuksak metodik darajada o'tilishini ta'minlash, o'zining ish faoliyatida sidqidildan tayyorlanib, lozim. Zero, dars o'qituvchidan hozirjavoblik, izlanish, katta irodaviy kuch, hamdaturli pedagogic vaziyatlarga tezda munosabat bildirishini talab etadi. Omadsiz, samarasiz, dars uzoq vaqt o'qituvchiga orom bermaydi, ortga nazar solib uning sabablarini qidirishga ehtiyoj sezadi. Musiqa madaniyati darsi-maktabda musiqa tarbiyasini tashkil asosiy shaklidir. Dars musiqa tarbiyasi sistemasida yetakchi omil hisoblanadi, zero ki unda bolalar yalpi tarzda qamrab olnadi. Musiqa darslari boshqa fanlar darslaridan o'zining qiziqarliligi, badiiyligi va , emotsional tuyg'ular, bolalarda ko'proq ijodiy zavq va obrazli kechinmalar uyg'otishi bilan ajralib turadi. Musiqa madaniyati, ayniqsa, bolalarning axloqiy va aqliy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa darslari quyidagi spetsifik xususiyatlari bilan farq qiladi: Birinchidan, u musiqa tarixi, nazariyasi va ijrochiligiga doir turli namunalardan-xor mashg'ulotlari, musiqa savodi, musiqa tinglash, musiqa tahlili va adabiyoti, bolalar cholg'u



## International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

2<sup>nd</sup> November, 2025

asboblarida chalish, ritmik harakatlar bajarish elementlaridan iboratdir. Shuning uchun u aralash dars tipiga kiradi. Ikkinchidan, musiqa boshqa san'at turlaridan o'zining ifoda vositalari, "tili" bilan farq qiladi. Agar badiiy adabiyot, badiiy so'z, tasviriy san'at ranglar va grafik chiziqlar, raqs, badiiy harakatlar bilan ifodalansa, musiqa musiqiy tovushlarda vujudga kelgan ohang vositasida ifodalanadi. Agar tasviriy san'at va haykaltaroshlik asarlarini ko'rish orqali, badiiy adabiyotni o'qish va eshitish vositasida, kino va teatrni ko'rish va eshitish orqali idrok etsak, musiqani faqatgina diqqat bilan tinglabgina idrok eta olamiz. Buning uchun hatto ko'zi ojiz kishilardan ham yetuk musiqa ijrochilarining yetishib chiqishlari bejiz emas. «Faqat musiqiy quloqgina musiqaviy hissiyotni uyg'ota oladi». Musiqa aniq vaqt o'lchovi bilan bog'layotgan san'atdir. Ijro etilayotgan musiqa tempiga sozlanib, uning har bir elementini ilib olib tinglamasa, asar mukammal idrok etilmaydi. Shuning uchun klassik asarlarni ham bir qayta tinglaganda uning yangi badiiy qirralarini his etamiz. Musiqa vositasida ifodalanadigan his-tuyg'ularni so'z bilan ifodalash qiyin. "Qachonki so'z ojizlik qilsa, musiqa yordamga keladi". Uchinchidan, musiqa bolalarga faol emotsional ta'sir ko'rsatadi, quvontiradi, ijobiy kechinmalar uyg'otadi. Yahshi, mazmunli, qiziqarli musiqa darsidan bolalar quvnoq, xursand bo'lib, xordiq chiqaradilar. Demak, agar musiqa darsi oxirgi darsda qo'yilgan bo'lganda ham, bolalar hordiq chiqarib, charchoqlari tarqaladi. Bugungi kunda musiqa fanining yangi sohasi- funktsional musiqa orqali musiqaning kishi psixikasi va fiziologiyasiga ta'sirini o'rganilishi buning boisidir. Musiqa darsi o'zining aralash dars tipi (tuzilmasiga ega), ifoda vositasi (tili) va aktiv psixologik ta'siri bilan farq qiladi. Demak, musiqa darslari bolalarning shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Musiqa madaniyati darslar uchun alohida emotsional muhit xarakterlidir. Bu tabiiy hol, albatta, chunki musiqa "hissiyotlar tili". Musiqa to'liqlantiradi, bolalarning ruxiyatiga ta'sir ko'rsatib, muayyan kayfiyat uyg'otadi. Shakllangan badiiy taassurotlar o'qituvchi ta'sirida nafaqat ifodali ijro, balki "so'z" san'ati, yuz ifodasi, turli harakatlar yordamida yanada kuchaytiriladi. O'quvchilar diqqati yangrayotgan musiqaga jalb etilib, ularning xayoloti rivojlantiriladi. Musiqiy obrazlar olamiga kirishishlari, ifodalilikni aniq his etishlariga erishiladi. Umumiy jihatlariga qaramay har bir dars o'ziga xos va takrorlanmasligi bilan farq ham qiladi. Ma'lumki, hoxlagan ishning



# E CONF SERIES



## International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> November, 2025

yaxshi tashkil etilishi uning yarim yutug'i va bu to'liq ma'noda musiqa madaniyati darslariga ham taaluqlidir. Darsda mazmun va tuzilma, maqsad va vazifalar, vosita hamda metodlar barchasi o'ylangan bo'lishi kerak. Darsga tayyorgarlik o'qituvchining pedagogik malakasi, mahoratiga bog'liq. Aks holda hech qanday ijobiy natijalarga erishib bo'lmaydi. Darhaqiqat, musiqiy tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish- asarni chuqur o'rganishni talab etadi. Bu esa musiqa materialining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini, shuningdek ularni tadbiiq etish yo'llarini ta'minlaydi. Dars mazmunida turli xil tabiatdagi, kayfiyatdagi musiqa asarlari bo'ladi. Ularni tanlab olish esa o'quvchilar musiqiy tayyorgarligi hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Ularning yaxlitligini ta'minlash uchun dars tuzilmasini aniqlab olish zarur. Darsning emotsional tuzilmasini o'ylab o'qituvchi bir asardan boshqasiga o'tish jarayoniga o'quvchilardagi muhim hissiy holatni saqlab qolishi va ularning diqqatini jalb etish usullarini tadbiiq etishi lozim. Shuningdek, dars tuzilmasini tuzishda bolalar aqliy, jismoniy va emotsional holatlarini, sinfnig o'ziga xosligini inobatga olish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi. Bunda turli musiqiy faoliyatlarning birin-ketinligiga e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, boshlang'ich sinflarda kichik yoshdagi o'quvchilar diqqatini uzoq vaqt barqaror saqlay olishmaydi, shu bois ularning faoliyatini o'z vaqtida almashtirib turish maqsadga muvofiq. Bu bolalarning qiziqishlarini so'nishidan saqlaydi. Murakkab qo'shiqni, raqsni bir necha dars davomida o'rgatish samarali kechadi; murakkab musiqiy –ritmik harakatlar o'rganilishidan so'ng qo'shiq kuylashga o'tish maqsadga muvofiq emas. Shuningdek jadvalda musiqa darsining o'rnini ham, ya'ni o'sha kunda bu mashg'ulot nechanchi soatda o'tilishini ham hisobga olish lozim. Kunning so'ngi soat darslarida bolalarning charchab qolish holatlari ro'y beradi, shuning uchun turli hil ishlarni almashtirib, qiziqishni uyg'otuvchi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Musiqa madaniyati mashg'ulotlari jismoniy tarbiya darslaridan, mehnat ta'limikeyin o'tiladigan bo'lsa, idrok etishga undovchi, o'quvchilarni fikrlashga, faoliyatlardan boshlash lozim. Har bir muayyan holatda o'qituvchi sinfnig o'ziga xoslik jihatlarini, o'quvchilarning u yoki bu musiqiy faoliyatga qiziqishlarini, ularning tayyorgarlik darajalarini hisobga olishi maqsadga



## International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> November, 2025

muvofiqdir. Chunki qaysi darsdan soʻng musiqa madaniyati mashgʻuloti boʻlishi ham ahamiyat kasb etadi.

Shunday qilib, toʻliq shart-sharoitlar hisobga olingan dars tuzilmasini amalga oshirish uchun oʻqituvchining ijodiy yondashuvi talab etiladi. Bu esa har bir darsni takrorlanmas boʻlishiga yordam beradi. Axir bir mashgʻulotdan ikkinchisigacha boʻlgan davrda boshqa fanlar oʻtilib, taassurotlar sayozlashishi mumkin. Oʻqituvchi hafta davomida musiqa darslarida yaxlit taassurotlar va qiziqishlarni saqlab qolishlariga erishmogʻi kerak. Dars oldindan rejalashtirilsa, oʻylab qoʻyilgan reja asosida boʻlmogʻi, oʻqituvchi va oʻquvchilarning hamkorlik faoliyati doimiy jonli jarayon asosida amalga oshirilishi lozim. Biroq ayrim kutilmagan holatlar boʻlishi mumkin va muayyan har bir holatga maslahat berib boʻlmaydi. Baʼzan koʻzda tutilmagan holatlar yoʻl- yoʻlakay dars tuzilishida ham amalga oshirishga toʻgʻri kelib qoladi. Oʻqituvchining kasb mahorati oʻzini yoʻqotmasdan har bir holatga tegishli xulosa chiqarishni taqozo etadi. Natijada dars maqsadiga erishilib, belgilangan tuzilmada amalga oshiriladi.

Tajribali oʻqituvchilar yaxlit dars tuzilmasiga alohida ahamiyat berishadi. Zero darsning turli elementlari: bosqichlari oʻzaro uygun va bir-biri bilan bogʻliq boʻladi. Turli metodlar (asarni taqqoslash, muammoli izlanish, oʻyin holatlari) asosida oʻqituvchi bolalarni ijodiy topshiriqlar orqali faolligini oshiradi va istagan natijalarga erishishlariga harakat qiladi. Maʼlumki, zamonaviy musiqa madaniyati darslarining sifati oʻquvchilar faolligi bilan belgilanadi. Faollik muammosi nafaqat darsning qiziqarli tuzilmasi, bolalarga qiziqishni shakllantiruvchi metodlarni qoʻllash orqali hal etiladi. Koʻpincha oʻqituvchining har bir oʻquvchiga yakka-individual yondashuviga ham bogʻliq boʻladi. Shubhasiz, bu oʻqituvchi oldidagi muhim vazifalardan biridir.

Oʻqituvchi bolalar bilan hammasi boʻlib haftasida bir marotaba uchrashadi, musiqa madaniyati darsi sinf bilan keng koʻlamli ishlarni amalga oshirishni talab etadi. Shu bois, oʻqituvchi oʻz oʻquvchilarini yahshi bilmogʻi, ularning kuchli va zaif tomonlarini, qiziqish va ehtiyojlarini toʻgʻri anglab, bolalar dunyosiga kirishib har bir oʻquvchi imkoniyatlarini baholashi kerak. Darsda bevosita muloqot oʻrnatishga harakat qilish, savollarga undovchi, soʻrovli nigoh, yuz ifodasida bayon etish vosita va usullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq.



# E CONF SERIES



## International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: [econferences.com](http://econferences.com)

2<sup>nd</sup> November, 2025

Har bir musiqiy faoliyat bolalarga individual yondashish imkonini beradi. Ayniqsa, bu ikki, uch ovozli asarlarni o'rganishda bolalar musiqa cholg'u asboblariida jo'r bo'lish, o'quvchilar imkoniyatiga ko'ra ijodiy xarakterdagi topshiriqlar berishda va h.k.larda buni yaqqol kuzatish mumkin. Differentsial topshiriqlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi, ularning muvaffaqiyatli bajaruvi esa o'quvchilar musiqiy rivojlanishlarini faollashtiradi. Natijalarni baholash, toza kuylashga erishish yoki ritmik jo'rovoqlikni bajarish orqali o'qituvchi bolalikda o'z-o'zini nazorat qilish hissini rivojlantiradi. Shuningdek, bolalarga individual yondashuv ularda jamoatchilik hissini ham tarbiyalaydi. Bolalarning bajariladigan ijodiy topshiriqlarning sifatiga mas'ullik oshadi. Bu esa barcha o'quvchilarga quvonch qiziqish tuyg'ularini uyg'otadi.

Musiqa xonasining estetik jihozlanishi darsga o'ziga xos kayfiyat ruh bag'ishlab, bolalarda zavq uyg'otishi kerak. Zamonaviy musiqa madaniyati darslarini maxsus jihozlangan sharoitsiz amalga oshirish qiyin. Darsda bolalar texnik, musiqa cholg'u asboblari, ko'rgazmali vositalar juda ham muhim. Ularning o'z vaqtida tayyorlanganligidan, sifatligidan va unumli tadbir etilishidan darsning muvaffaqiyatli o'tishi ta'minlanadi. Bugungi kunda o'qituvchi darslarda musiqa asarlarining turli ijrolarini (orkestr, ansambl ijrosida) sadolanishi texnik vosita, yozuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Bu vositalar o'quvchilarning har bir ovozning jaranglashini va musiqa cholg'ularining ifodaliligini idrok etish tasavvurlarini kengaytiradi, Fonoxrestomatiya esa o'qituvchida qo'shiq o'rgatishni yanada qiziqarli qilishga yordam beradi. Gramezuvlarda jo'r qismlari, Bolalar xor jamoalarining ijrolari o'z aksini topgan. Magnitafonda o'qituvchi dars davomida qo'shiq ijrosini yozib olib, o'quvchilarning o'ziga qaytib eshitirishi va ijroga nisbatan bolalarning munosabat hamda baholarini berishni taklif etadi. Keyingi paytlarda musiqa darslarida turli hil ko'rgazmali vositalardan keng foydalanilmoqda. Bular illyustratsiya, turli tasviriy manzaralar va boshqalar. Bu esa darsda tasviriy san'at, so'z san'ati namunalaridan ham unumli foydalanishni nazarda tutadi. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi ko'rgazmali vositalardan foydalanish muhim. Nota tablitsalari yordamida bolalarda nota asosida kuylash malakalari egallanadi. Qo'shiq kuylashni tezroq o'zlashtirilishiga erishiladi. Tovushlarni to'g'ri va toza kuylash, eslab



## International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2<sup>nd</sup> November, 2025

qolishlariga yordam beradi. Darsda texnik va ko'rgazmali vositalarini tadbqiq etish chuqur o'ylangan bo'lishi kerak. Ulardan unumli foydalanish musiqa tarbiyasi vazifalarini hal etishda muhim rol o'ynashini ta'kidlash lozim. O'qituvchi ijodining natijasi bo'lgan dars g'oyaviy-emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lib, o'quvchi ichki dunyosini zabt etib, musiqa san'atiga qiziqish va ehtiyojni tarbiyalaydi. Shunday qilib, umumta'lim maktabida musiqa madaniyati darslariga puhta tayyorgarlik ko'rish va uni samarali o'tkazish o'qituvchidankasbiy tajribalarni doimo ijodiy yondashuvni, malaka, bilim va ko'nikmalarni faol tadbqiq etishni taqozo etadi. Musiqa madaniyati darslarining muvaffaqiyati chuqur bilimli, savodxon, o'z kasbiga fidoiy bo'lgan o'qituvchi shaxsiga bog'liq. Shu bois, musiqadan malakalari va bilim yetarli bo'lmagan o'qituvchilarga musiqa darslarini mutaxassis mualliflardan zaruriy saboqlar olib, magnit yozuvlardan keng foydalanib, musiqa o'qitish jarayonida yangi pedagogik texnologiya usullaridan unumli foydalangan holda dars o'tishlari maslahat beriladi. Aks holda o'quvchilarning belgilangan dastur talablarini o'zlashtirishlari mushkullashib, musiqa madaniyati darslari oldiga qo'yiladigan talablarga erishilmay qoladi. Umumta'lim maktablaridagi musiqa ta'limi o'zining uslubiy, tashkiliy tuzilish xususiyati bilan boshqa fanlarni o'qitilishidan farq qiladi. Bu eng avvalo musiqa darslarining bir maqsadga yo'naltirilgan, o'zaro bir-biriga bog'liq, bir-birini to'ldiruvchi, davom ettiruvchi, va besh faoliyat uyushtirilishida ko'rinadi. Bu faoliyatlar aslida ma'lum bir pedagogik maqsad va vazifalar bilan bog'langan bo'lsa-da, pirovardida ularning barchasi o'quvchilarni musiqa madaniyatini shakllanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, yurtimiz kelajagini davomchilari bo'lgan yosh avlodning tarbiyasiva ta'limda musiqa madaniyati fanining ahamiyati va o'rni beqiyosdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Sh.M.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Ma'kamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11



# E CONF SERIES



**International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences**

Hosted online from New York, USA

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

2<sup>nd</sup> November, 2025

- 
2. Sh.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent “O‘zbekiston” – 2017 y.
  3. Ibrohimov O. A. O‘zbek xalq musiqa ijodi (metodik tavsiyalar). – T.: 1994
  4. Musabekova S.I. Musiqa tarbiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1973
  5. Soipova. D . “ Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi” T.2009.
  6. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).